

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.05/30.06.2021.T.126.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**OBIDOV OYBEK SOBITJON O‘G‘LI**

**CHIZEL-KULTIVATORNING YEYILGAN ISHCHI ORGANLARINI  
TIKLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(DOLOTA MISOLIDA)**

**05.07.02 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalarini ishlatish, tiklash va ta‘mirlash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy  
(PhD) on Technical Sciences**

**Obidov Oybek Sobitjon o‘g‘li**

Chizel-kultivatorning yeyilgan ishchi organlarini tiklash texnologiyasini takomillashtirish (dolota misolida) ..... 3

**Обидов Ойбек Собитжон угли**

Совершенствование технологии восстановления изношенных рабочих органов чизель-культиватора (на примере долоты) ..... 21

**Obidov Oybek**

Improvement of the technology for restoring the working organs of a chisel-cultivator that have worsen (on the example of a dolot) ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.05/30.06.2021.T.126.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**OBIDOV OYBEK SOBITJON O'G'LI**

**CHIZEL-KULTIVATORNING YEYILGAN ISHCHI ORGANLARINI  
TIKLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(DOLOTA MISOLIDA)**

**05.07.02 – Qishloq xo'jaligi va melioratsiya texnikalarini ishlatish, tiklash va ta'mirlash**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4737 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi [www.andqxai.uz](http://www.andqxai.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mo'ydinov Azizbek Shuxratovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Nuriyev Karim Katibovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Almatayev Tojiboy Orziqulovich**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.06.2021.T.126.02 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil «01» 07 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Kuygan yor, Oliygoth ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: +998 (74) 373 13 63, e-mail: [admission@andqxai.uz](mailto:admission@andqxai.uz)).

Dissertatsiya bilan Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Kuygan yor, Oliygoth ko'chasi, 1-uy. Tel. /faks: +998 (74) 373 13 63, e-mail: [admission@andqxai.uz](mailto:admission@andqxai.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).



**R.J. Tojiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisining o'rinbosari, t.f.d., professor

**R.A. Abdiraxmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

**K. Qosimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda qishloq xo‘jaligi yerlariga ishlov berishda foydalaniladigan mashina va agregatlarda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishonchliligi va puxtaligi yuqori bo‘lgan ishchi organlarni qo‘llash yetakchi o‘rinni egallaydi. “Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun har yili 1,8 mlrd. gektar maydonga ishlov berilishini hisobga olsak”<sup>1</sup>, tuproqqa ishlov berish jarayonida yuqori quvvatli va resurstejamkor mashinalarni va ularda resursi oshirilgan ishchi organlarni amaliyotga joriy etishni taqozo qiladi. Shu jihatdan ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor tuproqqa ishlov beruvchi qishloq xo‘jalik texnikalarini yaratish va ularning ishchi organlari resursini oshirish va mavjudlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda, xususan rivojlangan mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot markazlarida tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar ishchi organlarining yeyilishini kamaytirish va resursini orttirishga yo‘naltirilgan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, qishloq xo‘jaligida asosiy vazifa bo‘lgan tuproqqa ishlov berish, melioratsiya ishlari salmog‘ini orttirish, ularda qo‘llaniladigan texnikalarni sifat jihatdan yaxshilash va undan foydalanishning samaradorligini oshirish hamda ishchi organlarning resursini orttirish dolzarb hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida, tuproqqa ishlov beradigan yuqori unumli mashinalar ishlab chiqish hamda ularning ishchi organlarining konstruksiyasini takomillashtirish, ta‘mirlash tizimini yaxshilash jumladan, ularning ish resursini materialini tarkibi, mikrostrukturasi, qattiqligi kabi xossalarni yaxshilash va tiklashning takomillashgan texnologiyasini yaratish ustida maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da, jumladan, **“...Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish...”**<sup>2</sup> bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan qishloq xo‘jaligida mashinalarning tuproq bilan doimiy ishqalanish sharoitida ishlovchi ishchi organlarning resursini, jahonning shu sohada yetakchi korxonalarini ishlab chiqarayotgan ishchi organlari ish resursi darajasiga yetkaza oladigan texnologiyani yaratish, mavjudlarini takomillashtirish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish hisobiga xarajatlarni kamaytirish va ularning tannarxini pasaytirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 7-iyuldagi PQ-3117-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy-texnikaviy bazani yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan

<sup>1</sup> [https://evdemosfera.narod.ru/issl/issl/razn/ek\\_zemlia.html](https://evdemosfera.narod.ru/issl/issl/razn/ek_zemlia.html)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo amaliyotida tuproqqa ishlov berish jarayonlari samaradorligini oshirish uchun turli xil chizel-kultivatorlar va ishchi organlari ishlab chiqilgan. Chizel-kultivatorlar va shu kabi texnika vositalarining konstruksiyasini takomillashtirish, ta‘mirlash tizimini yaxshilash va ularning ish resursini orttirish, agrotexnik ish ko‘rsatkichlarini oshirish hamda energiyahajmdorligini kamaytirish bo‘yicha tadqiqotlar xorijda A.K.Srivastava, C.E.Goering, R.P.Rohrbach, D.R.Buckmaster, M.M.Xrushchov, M.A.Babichev, S.P.Vasilyev, L.S.Yermolov, A.A.Dudnikov, M.M.Tenenbaum, A.A.Novikov, L.V.Kostileva, V.A.Motorin, V.S.Novikov, Sh.A.Yenikeyev, V.P.Kozlovskiy, N.M.Mishustin va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Respublikamizda tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarning ta‘mirlash tizimini yaxshilash, ularda foydalanilayotgan ishchi organlarning yeyilish qonuniyatlarini o‘rganish va ularning ish resursini orttirish bo‘yicha tadqiqotlar U.Ikramov, K.X.Mahkamov, G.M.Rudakov, G‘.R.Rahmonov, K.Qosimov, K.K.Nuriyev, M.T.Madazimov, M.K.Qosimova, N.U.Qodirov va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Ular tomonidan olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida qishloq xo‘jaligi texnikalarini va ularning ishchi organlarni turli konstruksiyalari yaratilgan, qayta tiklab, ish resursini orttirish texnologiyalari ma‘lum darajada amaliyotga joriy qilingan. Ammo, tadqiqotlarning ko‘plari O‘zbekistonning sug‘oriladigan yerlari uchun mo‘ljallanmagan yoki ularda ishchi organlarning yeyilishga chidamliligini va resursini sezilarli darajada orttira oladigan material tarkibi va tiklash texnologiyasidan foydalanish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.**

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Andijon mashinasozlik instituti “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasining 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan “Mashinasozlikda qo‘llanilayotgan texnikalar ishchi organlarini ish resursini oshirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** chizel-kultivatorning yeyilgan dolotalarini tiklash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

chizel-kultivator dolotasining resursini oshirish texnologiyasiga qo‘yiladigan talablarni shakllantirish maqsadida tuproqning yeyiltiruvchi xossalarini, dolotalarni

yeyilish sabablarini, resursini oshirish usul va texnologiyalarini o'rganish va tahlil qilish;

respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qo'llanilayotgan mavjud ishchi organlar hamda ularning materiallari tarkibi, strukturasi, qattiqligi va yeyilishga chidamliligini aniqlash;

chizel-kultivator dolotasining yeyilishga chidamliligini oshirishni materiali tarkibi, qattiqligi va termik ishlov berish darajasiga bog'liqligini nazariy asoslash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish;

mahalliy hom ashyolardan quyib tayyorlangan yangi yig'ma konstruksiyadagi chizel-kultivator dolotalarini quyib qayta tiklash texnologiyasini takomillashtirish;

tiklashning takomillashgan texnologiyasi asosida quyib qayta tiklangan yig'ma dolotalarni dala sinovlaridan o'tkazish va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida qishloq xo'jaligida tuproqqa ishlov beruvchi "Orthman" 8375 chizel-kultivatori dolotalari va ularni quyib qayta tiklab resursini oshirish texnologiyasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** chizel-kultivator dolotalarining ishqalanishi natijasida yeyilish jarayonlari, quyib qayta tiklangan va termik ishlov berilgan detallar materialining tarkibi, makro-mikrostrukturasi, qattiqligi, yeyilishga chidamliligi va ularning o'zaro bog'liqlik ko'rsatkichlaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarni o'tkazishda qishloq xo'jalik texnikalarining ishonchligi, ishqalanish va yeyilish asoslari, materiallar qarshiligi, matematika va fizikaning fundamental qonun va qoidalaridan foydalanildi. Nazariy tadqiqotlar mexanika qoidalari, matematik tahlil va usullari eksperimental tadqiqotlar esa ГОСТ 5640-20, ГОСТ 10243-75, ГОСТ 9013-59, ГОСТ 54153-2010, ГОСТ 23.208-79 kabi standartlar va me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalarning iqtisodiy samaradorligi ГОСТ Р 53056-2008 "Техника сельскохозяйственная. Методы экономической оценки" bo'yicha aniqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

chizel-kultivator dolotalarining resursini oshirish maqsadida, ularning tez yeyiladigan qismini almashtirish imkonini beradigan yangi yig'ma konstruksiyasi yaratilgan;

ish organlarining ishqalanish yuzasida hosil qilingan yeyilishga chidamli qatlam tarkibidagi qattiq qotishmalar zarralarining o'lchamini tuproq tarkibidagi abraziv zarralarining o'rtacha o'lchamigacha ortib borishi va ushbu qattiq qotishmalar zarralari orasidagi masofani qisqarib borishi ish organining abraziv yeyilishga chidamliligini ortishi hamda ish organi yuza qatlamidagi qattiq qotishmalar hajmiy miqdori 50% gacha bo'lishi kerakligi asoslangan.

eksperimental tadqiqotlar asosida dolota materialining yeyilish miqdori, yeyilish jadalligi, tuproqning bosimga, ishqalanish tezligiga hamda dolota materialining qattiqligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlarini ifodalovchi empirik bog'lanishlar aniqlangan;

chizel-kultivator dolotalarining tez yeyiladigan qismini mahalliy hom ashyolardan quyib qayta tiklash uchun uning resursini mavjudlariga nisbatan yuqori

bo'lishini ta'minlaydigan strukturaga, qattqlikka, yeyilishga chidamlilikka ega bo'lgan materialning tarkibi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

chizel-kultivator dolotalarini qayta tiklash texnologiyasi takomillashtirilgan hamda yeyilgan dolotalarni qayta tiklab foydalanish samaradorligini 1,71 martaga oshirish imkoniyatini bergan;

chizel-kultivator dolotasining yangi yig'ma konstruksiyasini ishlab chiqarishga joriy qilish natijasida, material sarfi 62,5 % gacha, tuproqqa ishlov berishda ehtiyot qismlar sarfi 35 % gacha kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** izlanishlarning amaliyotda keng qo'llanib kelinayotgan samarali usullar va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy tadqiqotlarni materialshunoslik, va materiallar qarshiligi qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajriba natijalariga matematik statistika usullarida ishlov berilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarining adekvatligi, tiklab resursi oshirilgan dolotalarning laboratoriya va dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati takomillashtirilgan texnologiya asosida tiklangan dolotalarning ish resursi tuproqning nisbiy yeyiltirish xususiyatiga, bosimga, ishqalanish tezligiga hamda ularning yeyilgan yuzasini tiklashda foydalanilgan materialning tarkibi, strukturasi, qattqligi va yeyilishga chidamliligi kabi ko'rsatkichlariga bog'liqligini ifodalovchi mexanik-matematik va hisobiy modellar ishlab chiqilganligi va ulardan shunga o'xshash ishchi qismlarni yeyilgan yuzalarini tiklashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati chizel-kultivator dolotalarini qayta tiklashda takomillashtirilgan texnologiya qo'llanilganda ularning resurstejamkorligi ta'minlanishiga va bu bilan tuproqqa ishlov berishda yonilg'i, material va ehtiyot qismlar sarfini kamayishiga erishilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dolotalarni tiklab resursini oshirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

chizel-kultivator dolotalarini resursini oshirish uchun dolotalarning tez yeyiladigan qismini almashtirish imkoni yaratilgan.

yaratilgan dolotalarning tez yeyiladigan qismini almashtirish orqali qayta tiklash imkonini beradigan yangi yig'ma konstruksiyasi Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi "BALIQCHI AGROMAKS" va Qo'rg'ontepa tumanidagi "KHANTEX AGRO SERVIS" MChJ larida ishlab chiqarish sinovlaridan o'tkazilgan hamda joriy etilgan. (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11-oktabrdagi 05/04-04/497-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu chizel-kultivator dolotalarining ish resursi 1,71 martaga ortishiga va ehtiyot qismlar sarfi 30 - 35 % ga kamayishiga erishilgan.

dolotalarning tez yeyiladigan qismini almashtirish orqali qayta tiklash imkonini beradigan takomillashtirilgan texnologiyasi "AVTO TEXNO IMPULS" MChJ ga topshirilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11-oktabrdagi 05/04-04/497-son ma'lumotnomasi). Natijada tez yeyiladigan qismini almashtirish imkonini beradigan yangi yig'ma konstruksiyadagi dolotalarni seriyalab ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini nashr etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan 1 ta dasturiy ta'minot uchun guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Masalaning qo'yilishi va tadqiqot vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida respublikamizda mavjud tuproqlarning turlari va mexanik xossalari hamda tuproqqa ishlov berishda foydalanilayotgan ishchi organlarning tahlili, ishchi organlarning yeyilish sabablari va yeyilishga chidamlilikni oshirishning asosiy yo'nalishlari, O'zbekistonda va xorijda kultivator ishchi organlarining ish resursini orttirish bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili, kultivator ishchi organlarini ish resursini oshirishda tiklashning takomillashgan texnologiyasidan foydalanish istiqbollari, shuningdek tadqiqotning maqsadi va vazifalari keltirilgan.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda g'oz qator oralari va shu kabi yerga ishlov berish jarayonida kultivatorlar uchun turli xildagi ishchi organlardan foydalaniladi. Ushbu ishchi organlar (O'q yoysimon panja, o'toqlovchi yotiq panja, iskanasimon panja, aylanma panja, chuqur yumshatuvchi panjalar) mavsumiy ish jarayonida tezda yeyilib ishdan chiqadi va almashtirish zarurati tug'uladi. Ushbu ish organlarining, xususan, dolotalarning yeyilishi o'z navbatida tuproqning qattiqligi, zichligi va namligi kabi fizik-mexanik xossalari va dolotalar tayyorlanadigan material tarkibi va termik ishlov berish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Avval olib borilgan tadqiqotlarning tahlili ko'rsatdiki, mamlakatimizda qishloq xo'jalik yerlariga ekish oldidan va ekin qator oralari ishlov berishda qo'llaniladigan chizel-kultivator ishchi qismlarini konstruksiyasini takomillashtirish hamda ish resursini oshirish bo'yicha yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmagan. Bu esa, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan chizel-

kultivatorlarning ishchi organlarini ish resursi xorijda ishlab chiqarilayotgan chizel-kultivatorlarning ishchi organlariga nisbatan ancha past bo'lishiga va natijada qator oralariga ishlov berish xarajatlarini va ishchi organlar sarfini ortib ketishiga olib kelmoqda. Ushbu ta'kidlanganlardan kelib chiqqan holda chizel-kultivator dolotalarini yeyilgan yuzalarini tiklash texnologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilab olindi.

Dissertatsiyaning **“Nazariy tadqiqotlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida tuproqqa ishlov beradigan mashinalar ish organlarining abraziv yeyilishga chidamliligini oshirishning nazariy asoslari, yeyilish nazariyasi haqida umumiy ma'lumotlar, detallarni hajmiy va yuza qismini yeyilish qonuniyatini aniqlash bo'yicha nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Yeyilish – bu ishqalanish natijasida jism o'lchamlarini sekin-asta o'zgarib borish jarayoni bo'lib, u ishqalanish yuzasidan material zarrasini ajralib chiqishi yoki qoldiq deformatsiya hosil bo'lishi bilan kechadi (ГОСТ 16429-70).

Detallar materialida yuzaga keladigan o'zgarishlar darajasini miqdoran baholashning umumiy uslubiga mos keladigan yeyilishning ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

chiziqli yeyilish miqdori  $i$  (mkm) – bu yeyilish jarayonida detal yuzasining o'lchamini ishqalanish yuzasiga perpendikulyar yo'nalishdagi o'zgarishi;

yeyilish tezligi  $\gamma = di/dt$  (mkm/soat) – bu yeyilish miqdorini u sodir bo'lgan vaqtga nisbati (ГОСТ 16429-70);

yeyilish jadalligi  $\varepsilon = di/ds$  – bu yeyilish miqdorini yeyilish sodir bo'lgan ishqalanish yo'liga nisbati; agar chiziqli yeyilish va ishqalanish yo'li bir xil o'lchov birligida bo'lsa bu kattalik o'lchamsiz bo'ladi.

### **Detal ishchi yuzasi materiali tarkibiga kiruvchi qattiq qotishmalar o'lchamlari va miqdorini asoslash.**

Tuproqqa ishlov beradigan mashinalar ish organlarining yeyilishga chidamliligini orttirishda uning ishqalanish yuzasidagi materialning strukturasi, tarkibi va fizik-mexanik xossalari muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga ushbu jarayonga tuproqning abraziv xossalari ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


Tuproqning asosiy tarkibiy elementlari qattiqligi HV 7...11 GPa gacha bo'lgan kvarts qumi hisoblanib, uning miqdori taxminan 36,6...70,2 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari tuproqning tarkibida dala shpati, slyuda va boshqa elementlar mavjud bo'lib, ularning qattiqligi HV 6...7.2 GPa ni tashkil qiladi.

Qattiq qotishmalarning yeyilish mexanizmi kam o'rganilgani uchun ham ular yoritilgan adabiyotlar juda oz va ular ishlov berilayotgan muhit va abraziv bilan to'g'ridan-to'g'ri kontaktda bo'lgan hollarga tegishli xolos. Ularning ichidan biz o'rganayotgan muhitga yaqin keladiganlaridan U.Ikromov, P.N.Lvov, N.A.Grinberg, L.G.Livshits, A.V.Polyachenko, K.Z.Qosimovlarning izlanishlarini misol keltirish mumkin.

Ularning fikricha, qattiq qotishmalarning yeyilishi ularning bog'lovchisini yeyilishidan boshlanadi. Natijada qattiq qotishma zarrasi atrofni o'rab ushlab turgan bog'lovchi kamayib boradi. Bu esa, karbid zarralarini detalning ishqalanish yuzasiga bo'rtib chiqib qolishiga sabab bo'ladi va uning mustahkamligini pasaytiradi. Bunday

zarralarga abraziv zarrachalarining urilishi oqibatida ular detal yuzasidan uzilib chiqib boshlaydi.

Ushbu holatni tushuntirish uchun yuqoridagi olimlar tomonidan qattiq qotishmalarning yeyilish sxemasi tuzilgan. Ko'rib chiqilgan asarlarda abraziv yeyilish sharoiti uchun eng mos struktura bo'lib karbidlar bilan bog'lovchi o'rtasidagi nisbat hisoblanishi aytilgan. Yumshoq va plastik qo'shimchalar, hamda g'ovaklar abraziv ishqalanish sharoitida yeyilishga chidamlilikni kamaytiruvchi omillar bo'lib xizmat qiladi. P.N.Lvov po'lat tarkibidagi karbid miqdori 25...35% bo'lishi kerak deb hisoblaydi. N.A.Grinberg esa po'lat tarkibidagi 30...60 mkm o'lchamdagi karbidlarning miqdori 35...45% bo'lishi kerakligini aniqlagan. Ammo qotishmadagi karbidlarning miqdori o'z-o'zidan yeyilishga chidamlilikni oshirib yubora olmaydi. Buning sababi Polyachenko tomonidan quyidagicha tushuntirilgan (1-rasm).



**1-rasm. 40 mkm o'lchamdagi abraziv zarraning tarkibida 30% karbidi bor po'latning yuzasi bilan o'zaro ta'sirlanish sxemasi**

Sxemada 40 mkm o'lchamdagi kvarts zarrasining qotishmaning 30 foiz hajmini egallaydigan 1-3 mkm o'lchamdagi karbid zarrachalari bilan o'zaro ta'siri ifodalangan. Abraziv zarrasi dumalashi yoki sirpanishidan qat'iy nazar bunday karbidlar uning yo'liga to'siq bo'la olmaydilar.

Buni A.V.Polyachenko ham quyidagi 2-rasmda keltirilgan sxemalar yordamida asoslagan. Sxemalarni tahlil qilish natijasida, detalning ishqalanish yuzasidagi qattiq qotishmalar zarralarining o'lchamini abraziv zarrasining o'lchamiga nisbatan ortib borishi va qattiq qotishma zarralari orasidagi masofani qisqarib borishi natijasida abraziv zarrasini yuza qatlamning bog'lovchisiga ta'sir etishi shunchalik kamayib borishini ko'rish mumkin.



**2-rasm. Detalning ishqalanish yuzasidagi qattiq qotishma zarralari bilan abraziv zarrasini o'zaro ta'sirlanish sxemasi**

Shuning uchun ham qattiq qotishmalardan olingan yuza qatlamlarining yeyilishga chidamliligi boshqa turdagi materiallardan olingan yuza qatlamlarining yeyilishga chidamliligidan yuqori bo'ladi.

Yuqorida keltirilganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Qattiq qotishmani tashkil etuvchi puxtalovchi fazasining qattiqligi u bilan eng ko'p kontaktda bo'luvchi abrazivning qattiqligidan yuqori bo'lishi kerak.

2. Qattiq qotishmani tashkil etuvchi puxtalovchi fazasining o'lchamlari abrazivning eng ko'p uchraydigan tajovuzkor o'lchamiga yaqin bo'lishi kerak.

3. Qattiq qotishmaning bog'lovchisini (matritsasini) abraziv zarrachalar ta'sirida tez yeyilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Buning uchun matritsa materiali sifatida qattiqligi abraziv qattiqligidan yuqori bo'lgan materialdan foydalanish kerak, yoki puxtalovchi faza zarralari orasidagi masofani minimal bo'lishini ta'minlash kerak.

4. Qattiq qotishmadan olingan yuza qatlamning elastiklik moduli va puxtaligi ma'lum metallokeramik qattiq qotishmalar darajasida bo'lishi kerak. Chunki qattiq qotishmalar tarkibida albatta bog'lovchi va to'ldiruvchi fazalar qatnashgani uchun ham ulardan olingan yuza qatlamlar metallokeramik qattiq qotishmalardan farq qiladi.

### **Po'lat va qotishmalarning abraziv yeyilishga qarshilik ko'rsatish qonuniyatlari.**


Po'lat va qotishmalarning va ularning strukturaviy holatining, ularga legirlash, termik va boshqa turdagi ishlov berish kabi imkoniyatlar bilan bog'liq ravishda, turli tumanligi, ularni ayrim belgilari (kimyoviy tarkibi, termik ishlov berish turi kabilar) asosida guruhlarga bo'lish lozimligi kelib chiqadi. Bunda legirlash tizimi bo'yicha guruhlash mantiqan to'g'ri bo'ladi.

**Ferritli qotishmalar.** Uglerodli po'latlar va qotishmalar tarkibidagi ferritdan iborat matritsa tarkibida karbid fazasining ortib borishi bilan tabiiy ravishda uning qattiqligi ortib boradi. Bunda yeyilishga chidamlilik ham ortib boradi, ammo karbidlarning yeyilishga chidamliligi sof metallarning yeyilishga chidamliligiga nisbatan sekinroq ortib boradi (3-rasm). Shuning uchun ham bo'shatilgan temir-uglerodli po'latlar va qotishmalarning  $\varepsilon = f(HV)$  bog'lanishli egri chiziqli grafigi sof metallarning to'g'ri chiziqli bog'lanish chizig'idan o'ngroqda joylashgan bo'ladi, chunki karbidlar qattiqlikni sezilarli darajada jadalroq orttirgan holda yeyilishga chidamlilikni esa u darajada keskin orttirmaydi.

**Martensitning yeyilishga chidamliligi.** Tahlillar natijasida aniqlanganki, martensitning qattiqligi ham, yeyilishga chidamliligi ham uning tarkibidagi uglerod miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Bunda martensitning qattiqligini pastlashi uglerod miqdorining yetarli emasligi (kam va o'rtacha uglerodli po'latlarni toblashdan keyin bo'shatilmaganligi) yoki toblangan uglerodli (V8 po'latigacha) po'latlarni bo'shatilishi bilan bog'liqligi ahamiyatga ega emas.

**Martensit+karbid strukturali qotishmalar.** Tarkibidagi uglerod miqdori 4,3% gacha bo'lgan va martensit strukturaga toblangan barcha evtektoiddan keyingi qotishmalarning yeyilishga chidamliligi bir xil (3.b - rasmdagi gorizontal chiziq) va u toblangan V8 po'latining yeyilishga chidamliligi bilan bir xil darajada turadi. Qattiqligi martensitga nisbatan yuqori bo'lishiga qaramasdan sementit toblangan evtektoiddan keyingi po'lat va cho'yanlarning yeyilishga chidamliligini oshirmaydi, chunki bu martensitni ishqalanish jarayonida puxtalanishi bilan bog'liq. Bunda bo'shatilmagan martensit strukturasi eng yuqori puxtalanish xossasiga ega bo'ladi.

**Qoldiq austenit.** Temir-uglerodli qotishmalarning abraziv yeyilishga qarshiligiga qoldiq austenitning ta'siri mos termik ishlov berishdan keyin, ortiqcha karbidlarsiz, maksimal mumkin bo'lgan miqdordagi qoldiq austenit strukturasi hosil bo'ladigan qotishmalarda aniq ko'rinadi. Aniqlanganki (3.c - rasm), evtektoiddan keyingi qotishmalarda toblash temperaturasini ortishi bilan, strukturadagi qoldiq austenit miqdorini ortib boishi oqibatida, qattiqligi pastlab boradi. Bunda yeyilishga chidamlilik ortadi. Tarkibida 2,0 % uglerodli qotishmani 1130 °C ga qizdirib toblash orqali, bunday strukturada mumkin bo'lgan maksimal miqdordagi qoldiq austenit mavjud bo'ladi, eng yuqori yeyilishga chidamlilikka erishiladi.



- a) texnik toza metallar va bo'shatilgan po'latlar (1- Ст.3; 2-45 po'lati; 3-У8; 4-У12) va qotishmalar (5-2,0 % C; 6- 3,3 % C; 7-4,3 % C); b) martensit strukturali evtektoidgacha bo'lgan po'latlar (1) va martensit strukturaga toblangan evtektoiddan keyingi po'lat va qotishmalar (2); c) turli temperaturalarda (1- 1130 °C; 2- 985 °C; 3-930 °C; 4-martensitga toblangan) toblangan va tarkibida 2,0% S bo'lgan qotishma.

### 3-rasm. Turli materiallarning qattiqligiga (HV) bog'liq bo'lgan nisbiy yeyilishga chidamliliklari (ε).


Shuning uchun ham 3.c - rasmdagi 1-nuqta tarkibida 2,0 % uglerodli qotishmani 1130 °C ga qizdirib toblashga mos keladi va u Fe-C ning legirlangan tizimidagi barcha qotishmalar ichida mumkin bo'lgan eng yuqori yeyilishga chidamlilikni ifodalaydi.

Tarkibida 2,0 % gacha uglerodi bo'lgan qotishmalarni mumkin bo'lgan maksimal miqdordagi austenit hosil bo'ladigan toblashdan so'ng unda ko'p miqdordagi martensit mavjud bo'ladi. Ularning qattiqligi yuqori bo'lgani holda yeyilishga chidamliligi past bo'ladi.

Shu bilan birga tarkibida 2,0 % dan ortiq uglerodi bo'lgan qotishmalarni, mumkin bo'lgan maksimal temperaturada, toblashda ularning strukturada austenit bilan bir qatorda ma'lum miqdordagi sementit ham mavjud bo'ladi. Bu o'z navbatida, qotishmaning qattiqligini oshirgani holda yeyilishga chidamlilikni pastlatadi (4-rasm).

4-rasmda temir-uglerodli po'lat va qotishmalarning strukturaviy holatini hisobga oluvchi abraziv yeyilishining qonuniyatlarini ifodalovchi diagrammasi keltirilgan. Diagrammadan ko'rish mumkinki, uning karbidli fazasi yeyilishga chidamlilikni bir xil bo'lmagan va doimo ham orttiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Bunda

tarkibida karbid boʻladigan matritsaning turi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ferrit matritsali poʻlat va qotishmalarning (boʻshatilgan holatdagi) yeyilishga chidamliligi uning tarkibidagi karbidlar miqdoriga proporsional ravishda ortib boradi (1-chiziq). Qotishmaning ferrit asosi tarkibida qancha koʻp karbidlar mavjud boʻlsa, uning qattiqligi va yeyilishga chidamliligi shuncha yuqori boʻladi. Martensit asosli qotishmalar tarkibidagi karbidlar miqdorini ortib borishi uning yeyilishga chidamliligini ortirmaydi (3- chiziq).



1-ferrit+karbidlar (boʻshatilgan holatda); 2-turli miqdordagi uglerodi boʻlgan martensit; 3-martensit+karbidlar; 4-qoldiq austenit+martensit+karbidlar.

#### **4-rasm temir-uglerod qotishmalarining strukturaviy holatini hisobga olgan nisbiy yeyilishga chidamlilikni qattiqlikka bogʻliq diagrammasi.**

Turli uglerod miqdoriga ega boʻlgan evtektoiddan keyingi poʻlat va choʻyanlar maksimal qattiqlikni taʼminlaydigan darajada toblangandan keyin barchasi bir-biridan uncha koʻp farq qilmaydigan yeyilishga chidamlilikka ega boʻladi.

Martensit strukturali poʻlat va qotishmalarning yeyilishga chidamliligi va qattiqligi uning tarkibidagi uglerod miqdoriga qarab ortib boradi (2-chiziq). Martensit tarkibida uglerod miqdori qancha kam boʻlsa, uning qattiqligi va yeyilishga chidamliligi shuncha past boʻladi.

Temir-uglerodli poʻlat va qotishmalarning mavjud strukturalari ichida eng yuqori yeyilishga chidamlilikka qoldiq austenit ega boʻladi (4-qiya chiziq). Metall matritsa tarkibida qoldiq austenit qancha koʻp boʻlsa, uning qattiqligi shuncha past boʻladi, ammo yeyilishga chidamliligi shuncha yuqori boʻladi. Qotishma tarkibidagi qoldiq austenit miqdorini martensit tashkil etuvchi yoki karbid fazasi hisobiga kamayishi, qotishmaning qattiqligini oshirishiga qaramasdan, uning yeyilishga chidamliligini pastlatadi.

Dissertatsiyaning “**Eksperimental tadqiqotlarni oʻtkazish metodikasi va tadqiqotlar natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlarning dasturi, tadqiqotlar olib borish uchun kerakli jihozlar, asbob-uskunalar va materiallarni tanlash, tiklash texnologiyasini takomillashtirish boʻyicha laboratoriya tadqiqotlari, mavjud va qayta tiklangan dolota namunalari materiallarining tarkibini, mikrostrukturasini, qattiqligini va yeyilishga chidamliligini oʻrganish natijalari hamda koʻp omilli eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Tanlab olingan, bir nechta markadagi poʻlat hamda choʻyan

materiallaridan laboratoriya tadqiqotlari o‘tkazish uchun namunalar tayyorlandi. Namunalarni quyib tayyorlashda mahalliy xom ashyolardan foydalanildi.

**Dolota namunalardan mikroshlif tayyorlash.** Tadqiqotlarda mikroshlif tayyorlashning an’anaviy usullaridan foydalanildi. Bunda namunalar MY-1224 jilvirlash dastgohida 0.32 mkm g‘adir – budurlikkacha mexanik ishlov berildi. So‘ngra namunalar turli donadorlikdagi jilvir qog‘ozlardan hamda alyuminiy oksididan foydalanib jilolandi. Tayyorlangan mikroshliflarning yuzasiga kimyoviy modda ta’sir ettirildi. Reaktiv sifatida HNO<sub>3</sub> ning spirtidagi 4 foizli eritmasidan foydalanildi. Mikroshlif namunasi 5-rasmda keltirilgan.



**5-rasm. Mikroshlif namunasi**

**Dolota namunalari materiali tarkibini o‘rganish.**

Dolotalar tayyorlangan materiallarning aniqlangan tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

**1-jadval**


**Dolotalar materialining spektral tahlil asosida olingan kimyoviy tarkiblari**

№	Material qattiqligi, HRC	Materialning kimyoviy tarkibi, %									Materialning taxminiy markasi
		C	Si	Mn	P	S	Cr	Mo	Ni	Cu	
1	46	3,56	1,89	1,86	0,032	0,022	18,09	0,045	0,19	0,19	ЧХ22
2	44	3,25	1,69	0,72	0,023	0,009	0,009	0,01	0,01	0,004	СЧ25
3	30	0,68	0,3	1,2	0,035	0,035	0,25	0,01	0,25	0,2	65Г
4	29	0,43	0,32	0,86	0,024	0,027	0,05	0,004	0,06	0,12	45Г
5	26	0,33	0,68	1,06	0,075	0,035	0,78	0,02	0,13	0,13	35ХГСЛ
6	38	3,6	1,9	0,8	0,06	0,08	0,38	0,01	0,08	0,1	ЧХ1
7	21	0,54	0,54	1,28	0,18	0,03	0,6	0,03	0,18	0,15	5ХГМ

Jadvaldan ko‘rish mumkinki birinchi va ikkinchi ЧХ22 va СЧ25 markadagi cho‘yan namunalar AQSh ning “Orthman” firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan dolota materialiga tegishli, uchinchi va to‘rtinchi 65Г va 45Г markadagi marganesli po‘lat namunalaridir. Beshinchi, oltinchi va yettinchi namunalar mos ravishda 35ХГСЛ, ЧХ1 va 5ХГМ markadagi po‘latlar hamda cho‘yanga mos bo‘lib, ular Andijon mashinasozlik institutining o‘quv laboratoriyasida mahalliy xom ashyolardan quyib tayyorlangan.

**Dolota namunalarning qattiqligini o‘rganish natijalari.** Tadqiqotlar davomida tanlab olingan namunalarning qattiqliklari THBRV – 187.5 DX universal

qattqlikka o'lash mashinasida o'rganildi. Olingan natijalarning o'rtacha qiymatlari quyidagi 6-rasmda keltirilgan.



### 6-rasm. Namunalarni qattqlikka sinash natijalari

Ma'lumki, dolotalarning abraziv yeyilishga chidamliligini oshirish uchun, ular ishchi yuzasining qattqligi HRC bo'yicha 45 birlikdan kam bo'lmasligi kerak jadvalda keltirilgan na'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ushbu shartni ЧХ22 markali cho'yan va 45Г, 35ХГЦЛ, 5ХГМ markali termik ishlov berilgan po'lat namunalarning qattqliklari qanoatlantirdi.

### Chizel-kultivator dolotalari materiallarining mikrostrukturasini o'rganish natijalari.

Mikroshliflar tayyorlashda kimyoviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan materiallardan foydalanildi.

#### Namunalar mikrostrukturalari


Namunalarning metallografik mikroskop yordamida olingan mikrostrukturalari quyidagi rasmlarda keltirilgan (7-;8-;9-;10-;11-;12-rasm).

45Г markadagi toblanmagan po'latning strukturasi o'rganilganda (7-rasm, a) perlit+soorbitdan iborat ekanligi aniqlandi (qattqligi 29 HRC).

45Г markadagi moy muhitida toblangan po'latning strukturasi (7-rasm, b) ferrit, martentsit va beynitdan iborat ekanligi aniqlandi (qattqligi 51HRC).

45Г markadagi suvda toblangan po'latning mikrostrukturasi (7-rasm, c) qoldiq austenit va martentsitdan iborat ekanligi aniqlandi (qattqligi 56 HRC).

ЧХ22 markadagi cho'yanning namunasining mikrostrukturasi (8-rasm, a;b;c) perlit+grafit+karbitdan iborat ekanligi aniqlandi (qattqligi 46 HRC).



a) toblanmagan; b) moyda toblangan;  
c) suvda toblangan


**7-rasm. 45Г markadagi po'latning mikrostrukturasi (x500)**

a) x100; b) x200; c) x500

**8-rasm. ЧХ22 markadagi cho'yanning mikrostrukturasi.**

Keyingi 35XГCJI markadagi po‘lat namunasini qizdirib moy muhitida toblanganda hosil bo‘lgan strukturasi (9-rasm) a;b;c) troostit va beynitdan hamda oz miqdorda ferritdan iborat ekanligi aniqlandi (qattiqligi 46 HRC).

Ч425 markadagi cho‘yan namunasining mikrostrukturasi (10-rasm, a;b;c) perlit+grafit+lideburiddan iborat ekanligi aniqlandi (qattiqligi 44 HRC).



a) x100 toblangan; b) x200 toblangan;  
c) x500 toblangan;


**9-rasm. 35XГCJI markadagi po‘lat namunasining mikrostrukturasi.**

a) x100; b) x200; c) x500

**10-rasm. Ч425 markadagi cho‘yanning mikrostrukturasi.**

5XГM markadagi po‘lat namunasining moyda toblash natijasida olingan mikrostrukturasi o‘rganilganda esa (11-rasm) a;b;c) asosiy metali ferritdan va yupqa plastinkasimon sementitdan iborat ekanligi aniqlandi (qattiqligi 45 HRC).

ЧX1 markadagi cho‘yan namunasining mikrostrukturasi (12-rasm, a;b;c) perlit+grafitdan iborat ekanligi aniqlandi (qattiqligi 38 HRC).



a) x100 toblangan; b) x200 toblangan;  
c) x500 toblangan;


**11-rasm. 5XГM markadagi po‘lat namunasining mikrostrukturasi.**

a) x100; b) x200; c) x500 ;

**12-rasm. ЧX1 markadagi cho‘yan namunasining mikrostrukturasi.**

Termik ishlov berilmagan namunalarning mikrostrukturasi o‘rganilganda ularning strukturasi asosan ma’lum nisbatdagi perlit+ferritdan iboratligi, termik ishlov berilgan namunalarning mikrostrukturasi esa trostid-martensit va martensit-karbiddan iboratligi aniqlandi. Strukturalardagi oq dog‘lar ferrit hisobiga hosil bo‘lgan, nisbatan qoraroq joylar perlit yoki sementitdan, xrom, titan, marganes, kremniy kabi elementlarning karbidlaridan iborat.

**Chizel-kultivator dolota namunalari laboratoriya sharoitida yeyilishga sinash natijalari.** Namunalarning 12-rasmda ko‘rsatilgan nisbiy yeyilishga chidamliligi va yeyilish miqdorini tahlil qilish natijasida, ulardan laboratoriya sinovlarida yeyilishga chidamliligi eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lganlarini ishlab chiqarishda solishtirma sinovdan o‘tkazishga tavsiya etildi.




- 1) 45Г suvda toblangan; 2) ЧХ22 markali cho‘yan; 3) 45Г moyda toblangan;
- 4) СЧ25 markali cho‘yan; 5) 35ХГЦЛ moyda toblangan;
- 6) 5ХГМ moyda toblangan; 7) 35ХГЦЛ toblanmagan;

**12-rasm. Namunalarning nisbiy yeyilishga chidamliligi va yeyilish miqdorlari**

### **Bir omilli eksperimental tadqiqotlarning natijalari.**

Chizel-kultivator dolotalarining yeyilish miqdoriga material qattiqligi, bosim kuchi va ishqalanish tezligiga bog‘liqliklarini ifodalovchi grafik qurildi, unga ko‘ra dolota namunasi materialining qattiqligini ortishi bilan namunaning yeyilishi kamayib boruvchi, namunaga beriladigan bosim kuchi va ishqalanish tezligini ortishi bilan namunaning yeyilish miqdori ham ortib boruvchi qoniniyatga amal qilishi aniqlandi. Bunda ayniqsa, detal yuzasining qattiqligi qancha ortsa, uning yeyilish miqdori shuncha kamayadi.



- 1- bosim kuchining ta'siri; 2- qattiqlikning ta'siri; 3- ishqalanish tezligining ta'siri;


**13-rasm. Omillarning yeyilish miqdoriga ta'sirini ifodalovchi grafik.**

Dissertatsiyaning **“Chizel-kultivator yig‘ma dolotasini tez yeyiladigan qismini takomillashgan texnologiya asosida quyib tiklashning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida chizel-kultivator dolotalarini tiklab resursini orttirishning takomillashgan texnologiyasi, takomillashgan texnologiya asosida quyib tiklangan yig‘ma dolotalarning dala sinovlari natijalari va uni ishlab chiqarishga joriy etishning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Chizel-kultivator dolotalarining dala sinovi natijalari uning pastki qismi ko‘p yeyilishini ko‘rsatdi. Shuga asosan dolotani almashinuvchi pastki uchlik qismga ega yig‘ma konstruksiyasi ishlab chiqildi, uning yig‘ma va alohida qismlari 14-rasmda

keltirilgan. Ishlab chiqilgan konstruktsiya asosida yeyilgan dolotalarni tiklash texnologiyasi ishlab chiqildi.

Tiklash texnologik jarayoni, plazma yoyi yordamida dolota korpusining yeyilgan qismini kesib tashlash, kesilgan korpus yuzalarini shlak va iflosliklardan tozalash, birikuvchi sirtini jilvirlash, almashinuvchi tumshuq qismini quyib tayyorlash, ikkala qismni bir-biriga o'rnatish va ularni uzluksiz chok bilan bir-biriga payvandlash kabi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:



1-yeyilishga chidamli po'latdan quyib tayyorlangan yoki plazma yoyi yordamida kesib olingan dolota korpusi; 2-ajraluvchi tumshuq qism; 3-tumshuq qismining tag asosi; 4- yo'naltiruvchi mahkamlash bo'rtig'i.

#### **14-rasm. Chizel-kultivatorning yig'ma dolotasi**

Yangi yig'ma konstruktsiyadagi dolotalarning dala sinovlari Andijon viloyati Qo'g'ontepa va Baliqchi tumanlarida joylashgan fermer xo'jaliklarida g'o'za qator oralariga ishlov berish davrida o'tkazildi. Dala sinov natijalariga ko'ra, termik ishlov berilgan 45Г markadagi po'latdan tayyorlangan dolotalarning yeyilish jadalligi 8,05 g/ha gacha kamaydi va ularning ish resursi o'rtacha 175 ha ni, ЧХ22 markadagi mavjud dolotaning resursi 102 ha ni tashkil etdi. Ishlab chiqilgan texnologiya asosida tiklangan va almashinuvchi uchlik qisimli yig'ma konstruktsiyaga ega dolotalarning ish resursini mavjud (ЧХ22 markadagi) dolotalarga nisbatan 1,71 martaga ortishiga erishildi.

Chizel-kultivator yig'ma dolotasini tez yeyiladigan qismini tiklashning takomillashgan texnologiyasini ishlab chiqarishga joriy etish (dolotalarini yillik ishlab chiqarish dasturi 1000 dona bo'lganda yoki yillik yuklama 174 000 ha ni tashkil etganda)dan kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 240 000 000 so'mni (2024-yildagi narxlarda) tashkil etadi.

### **XULOSALAR**

1. Ilgari olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlarning tahlillari ko'rsatdiki, ishqalanish natijasida tuproqqa ishlov beradigan agregatlar ishchi organlarining tez yeyilib ishga yaroqsiz holga kelishi agregatning nafaqat tortishga qarshiligini orttiradi, balki uning belgilangan chuqurlikka botishini qiyinlashtiradi, natijada ishlov berish chuqurligining notekisligi 68 % gacha, yonilg'i sarfi 130 % gacha ortadi, agregatning ish unumi 60 % gacha pastlaydi. Bu o'z navbatida sifatsiz ishlov berilgan maydonlardagi ekinlarning hosildorligini 40 % gacha pasayishiga, mashinadan foydalanish samaradorligi kamayishiga, ehtiyot qismlar sarfini ortishiga olib keladi.

2. Aniqlandiki, bugungi kunda chizel-kultivatorlar ishchi organlarining turli konstruktsiyalari yaratilganligiga, ularga termik ishlov berilganligiga, yeyilgan yuzalarini turli yeyilishga chidamli materiallar bilan payvandlab qoplab ish resursini orttirish texnologiyalari ishlab chiqilganligiga va ularni ma'lum darajada amaliyotga

joriy etilganligiga qaramasdan, Respublikamizda qo'llanilayotgan "Orthman" chizel-kultivatorlarining yeyilgan dolotalarini resursini tiklash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan hamda ishlab chiqarishga joriy etilmagan.

3. Tuproqqa ishlov beradigan ishchi organlarining yeyilishga chidamliligini oshirishda qo'llash maqsadida Yer qa'rida nisbatan keng tarqalgan va qazib olinayotgan metal va qotishmalarning turlari o'rganib tahlil qilinganda, xrom va marganes elementlari va ularning qotishmalari amaliy ahamiyatga ega ekanligini hamda ulardan olingan qattiq qotishmalar ishtirok etgan ishchi organi ishchi yuzasining abraziv yeyilish mexanizmini o'rganish ushbu sharoit uchun detallarning ishqalanish yuzasida joylashgan qattiq qotishma zarralarining o'lchamlari, ularni yuza bo'ylab bir tekish joylashishi va zichligi hamda bog'lovchi bilan mustahkam birikishi yeyilishga chidamlilikni ta'minlaydigan muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

4. Tuproqqa ishlov beradigan ishchi organlarning abraziv yeyilishga chidamliligini oshirishning mavjud: detallarning ratsional konstruksiyasini yaratish, material tanlash, termik va kimyoviy-termik ishlov berish, payvandlab qoplash kabi usullari o'rganib tahlil qilindi va natijada bunday abraziv yeyilish sharoiti uchun martensit va martensit-korbidli strukturalar nisbatan yuqori qattqlik va yeyilishga chidamlilikka ega bo'lishini ko'rsatdi, bunga mos material tanlash, termik ishlov berish va payvandlab qoplash orqali erishish mumkin.

5. Mavjud va quyib tayyorlangan hamda ayrimlariga termik ishlov berilgan namunalarning qattqligi va strukturasidagi o'zgarishlarni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari natijalari namunalar perlit, sorbit, troostit, martensit va karbid strukturalarga o'zgarib borishi bilan qattqliklari mos ravishda 21 HRC dan to 56 HRC gacha ortib borishini hamda shunga mos ravishda yeyilishga chidamliliklarini ham ortib borishini ko'rsatdi.

6. Laboratoriya tadqiqotlari natijasida dolotalarning ishchi yuzalariga ta'sir etadigan bosim kuchi, ishqalanish tezligi, yuza qattqligi kabi ko'rsatkichlarni namunalarning yeyilishga chidamliligiga ta'sirini ifodalaydigan empirik bog'lanishlar olindi. Unga ko'ra namuna materialining qattqligini ortishi bilan namunaning yeyilishi kamayib boradi, namunaga beriladigan bosim kuchi va ishqalanish tezligini ortishi bilan namunaning yeyilish miqdori ham ortib boradi. Bunda namunaning yeyilish tezligiga ishqalanish tezligini ortishi eng kam, bosim kuchini ortishi o'rtacha, material qattqligini ortishi eng ko'p ta'sir etadi.

7. Takomillashgan texnologiya asosida 45Г po'latidan tayyorlangan almashinuvchi uchliklarni payvandlash orqali tiklangan chizel-kultivator dolotalarini solishtirma dala sinov natijalaridan aniqlandiki, uning resursi mavjud (ЧХ22) dolotalarga nisbatan 1,71 marta ortgan.

8. Takomillashgan texnologiya asosida tiklangan chizel-kultivator dolotalarining resursi mavjud dolotaga nisbatan 1,71 marta ortishidan (dolotalarini yillik ishlab chiqarish dasturi 1000 dona bo'lganda yoki yillik yuklama 174 000 ha ni tashkil etganda) kutiladigan yillik iqtisodiy samaradorlik 240 000 000 so'mni (2024-yildagi narxlarda) tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.05/30.06.2021.Т.126.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ ИНСТИТУТЕ  
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И АГРОТЕХНОЛОГИИ**

---

**АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ**

**ОБИДОВ ОЙБЕК СОБИТОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ВОССТАНОВЛЕНИЯ  
ИЗНОШЕННЫХ РАБОЧИХ ОРГАНОВ ЧИЗЕЛЬ-КУЛЬТИВАТОРА  
(НА ПРИМЕРЕ ДОЛОТЫ)**

**05.07.02 – Эксплуатация, восстановление и ремонт сельскохозяйственной и  
мелиоративной техники**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ  
(PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Андижан – 2025**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2024.2.PhD/T4737.

Докторская диссертация по философии выполнена в Андижанском машиностроительном институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: [www.andqxai.uz](http://www.andqxai.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу: [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net).

**Научный руководитель:**

**Муйдинов Азизбек Шухратович,**  
доктор философии (PhD) техническим наукам, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Нуриев Карим Катибович**  
доктор технических наук, профессор

**Алматаев Тожибой Орзикулович**  
кандидат технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

Наманганский государственный  
технический университет

Защита состоится 01.07.25 г. в 14:00 часов на заседании Научного совета PhD.05/30.06.2021.Т.126.02 при Андижанском институте сельского хозяйства и агротехнологии по адресу: 170600, Андижанский област, Андижанский район, пос. Куйган-яр, улица Олийгох 1, Тел./факс: +998 (74) 373-13-63, e-mail: [admission@andqxai.uz](mailto:admission@andqxai.uz).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Андижанского института сельского хозяйства и агротехнологии за № \_\_\_\_\_, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (адрес: 170600, Андижанский област, Андижанский район, пос. Куйган-яр, улица Олийгох 1, Тел./факс: +998 (74) 373-13-63, e-mail: [admission@andqxai.uz](mailto:admission@andqxai.uz)).

Автореферат диссертации разослан \_\_\_\_ года  
(Протокол рассылки № \_\_\_\_\_ от \_\_\_\_ года)



**Р.Ж. Тажиев**  
Зам.председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор.

**Р.Абдирахмонов**  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, к.т.н., доцент.

**К. Косимов**  
Председатель научного семинара при научном  
совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

